

1. Eifl. *Open Access Programme*. Retrieved from <http://eifl.net/programmes/open-access-programme>
2. Suber, P. (2015, December). *Open Access Overview: Focusing on open access to peer-reviewed research articles and their preprints*. Retrieved from <http://legacy.earlham.edu/~peters/fos/overview.htm>
3. Suber, P. (2013, July). *Open Access*. Retrieved from [http://cyber.law.harvard.edu/hoap/Open\\_Access\\_\(the\\_book\)](http://cyber.law.harvard.edu/hoap/Open_Access_(the_book))
4. Словари и энциклопедии на Академикe (2012, May). *Открытый доступ*. Retrieved from <http://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1704945>

## TA'LIM MENEJERINING MATNIY KOMPETENTLIGI VA UNING AMALIYOTDA QO'LLANISHI

**Isaqova Z.M.** (*OO'MTV huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazi*)

*Bugungi kunda kompetentlik va kompetensiya masalalari har bir soha vakillarining alohida e'tiborida bo'lib kelmoqda. Maqola maqsadi oliy ta'lim menejerining matniy kompetentligi va uning tarkibiy qismlarini haqida ma'lumot berish, mazkur kompetensiyaning ilmiy maqola yaratish jarayonida namoyon bo'lish bosqichlarini izohlashdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kompetensiya, soha, oliy ta'lim, menejer, matniy, ilmiy maqola.

## EDUCATION MANAGERS' TEXTUAL COMPETENCE AND ITS USE IN PRACTISE

**Isakova Z.M.** (*Head Scientific-Methodological Centre under the MHSSE*)

*Nowadays special attention is given to the issues of competence and competent by the specialists in every sphere. The aim of this article is to inform about textual competence of higher education managers and its component parts, to analyse its rise stages on writing process of scientific paper.*

**Keywords:** competence, competent, sphere, higher education, manager, textual, scientific paper.

Ta'lim tizimi va uni boshqarish jarayoniga oid kuzatuvlar bugungi kunda mazkur tizim OTMlarni jadal taraqqiy etishga qaratilgan o'zgarishlarga muhtojligini namoyon etmoqda. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyat va iqtisodiyot ta'lim tizimida, xususan, oliy ta'lim sohasida bugungi talabni o'zida o'z vaqtida aks ettira oladigan islohotlarni talab qilmoqda. Oliy ta'lim to'g'risidagi Umumjahon Deklaratsiyasida ham aynan shu masalaga e'tibor qaratilib, oliy ta'lim tizimida mislsiz ehtiyoj va katta diversifikatsiya mavjudligi, shuningdek, xabardorlik darajasining ortishi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy yuksalish uchun zaruriy omil ekanligi ta'kidlanib, yorqin kelajak yaratishda yosh avlod yangi

ko'nikma, bilim va malakaga ega bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlangan<sup>1</sup>. Mazkur masalalarni hal etishda yetakchi o'rinlardan biri ta'lim menejeriga taalluqlidir. Chunki aynan ta'lim menejeri yangi talablarning o'sib borayotgan murakkablik darajasi bilan duch keladi, qabul qilingan qaror va yakuniy natijalar uchun mas'ul hisoblanadi. Bizning tushunchamizda “**ta'lim menejeri**” – bu tinimsiz ravishda o'z ustida ishlab, o'z-o'zini rivojlantirgan holda kasbiy, boshqaruv-pedagogik faoliyatni ijodiy yondashgan holda amalga oshira oladigan o'z kasbining ustasi hisoblanadi. Ilmiy izlanishlarda qayd etilishicha, bu boshqaruvning zamonaviy ilmiy usullari asosida ta'limni boshqarish vazifalarini mahorat bilan amalga oshiruvchi ishchi hamdir. Chunonchi, tadqiqot ishlarida ta'lim menejeri uch guruhga ajratilganini ham kuzatishimiz mumkin:

1. Ta'lim muassasalari va ta'limni boshqaruvchi organlarining ma'muriy xodimlari.

2. Ta'lim tizimining uslubiy, huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va boshqa xizmatlari boshqaruvchilari.

3. O'qituvchi-professorlar tarkibi ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv faoliyatining boshqaruvini tashkillashtiruvchisi sifatida<sup>2</sup>.

Oxirgi o'n yillikda inson resurslarini boshqarishga oid adabiyotlarda hamda boshqaruv amaliyotida “kompetent yondashuv” tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Xususan, kompetentli yondashuv ishlab chiqarish va davlat tashkilotlari rahbarlarini tanlab olish va ularning faoliyatini baholashga oid muammolarga yechim sifatida ham taklif qilinmoqda. Ta'kidlash joizki, avvaldan mazkur tushunchalarga katta e'tibor berilib, u ilm va amaliyotni bir-biriga yaqinlashtirish imkonini beruvchi majmuaviy elementga ega omil sifatida baholanmoqda. Bunda mutaxassisning (rahbar) bilimiga ham, ularni qo'llash malaka va ko'nikmasiga ham bo'lgan talablar hisobga olinadi. Ushbu yondashuvga asoslangan holda tashkilot (soha) kompetensiyalar modelini ishlab chiqadi. Mazkur ishlanmaning e'tiborga molik jihati shundan iboratki, undan bir qancha funksiyalarni amalga oshirishda: tanlash, baholash, rag'batlantirish va mutaxassisning (rahbar) malakasini oshirishda foydalanilish mumkin.

**Matniy kompetentlik** bir tomondan o'zida “muloqotning shakli sifatida matn haqidagi bilimlar majmuasi”ni mujassamlashtirgan bo'lsa, boshqa tomondan, “matniy faoliyatni amalga oshirishda shaxsning unga oid bilim, malaka va ko'nimalar yig'indisi”<sup>3</sup>dan tashkil topadi. Shunday qilib, matniy kompetentlik quyidagi faoliyatda namoyon bo'ladi: matn yaratish, matnni tushunish va matnni sharhlash. Ta'kidlash joizki, bu uch faoliyatning barchasi matn yaratish, ilmiy ish va maqolalar yozish davomida eng samarali usulda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, bugungi kunda oliy ta'lim muassasasi xodimlarining ilmiy va ilmiy-pedagogik

---

<sup>1</sup> Higher Education in the Twenty-First Century: Vision and Action// World Conference On Higher Education – UNESCO, 1998. – 2-b.

<sup>2</sup> Профессиональное образование. Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика. — М.: НМЦ СПО. С.М. Вишнякова. 1999.

<sup>3</sup> Болотнова Н.С. Текстовая компетенция и пути ее формирования//Материалы науч.-практич. конференции – Томск, 2001. – С.69

faoliyatlariga qo'yilgan talablardan kelib chiqsa, matniy kompetentlikni shakllantirish sifatli ilmiy maqolalar yaratishning omili bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiq qilingan ilmiy materiallar shuni ko'rsatdiki, matniy kompetentlik quyidagi 5 tarkibiy qismdan tashkil topgan bo'ladi:

- Tashkil etuvchi kompetentlik;
- Qayta ishlash kompetentligi;
- Tahlil qilish kompetentligi;
- Tushunish kompetentligi;
- Qabul qilish kompetentligi.

Yuqoridagi izohdan ko'rinib turibdiki, matniy kompetentlikning shakllanishi integrativ jarayon hisoblanib, o'zida filologik, psixologik va pedagogik tarkibiy qismlarni mujassamlashtiradi. Mazkur jarayonning shakllanishi matniy kompetentlikning yuqori darajasi hisoblangan matn yaratish uchun shart-sharoit yaratadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim menejerining kasbiy mahoratining asosini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy maqola yozish matniy kompetentlikni yuzaga chiqaruvchi yetakchi omillardan biri hisoblanadi deya e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiy maqola – ilmiy tadqiqotning jarayoni va natijalari haqidagi yozma shaklda tayyorlangan hamda nashr etilgan hisobot. Uni yozishga kirishar ekan, ta'lim menejerida dastlabki faoliyat – tashkil etuvchi kompetensiya shakllanadi.

Aksariyat manbalarda maqolalar quyidagi turlarga bo'linadi:

• **Ilmiy-nazariy** – nazariy izlanishlar asosida tayyorlangan tadqiqotlar natijasini tavsiflovchi hamda hodisa va ularning qonuniyatlarini izohlovchi maqolalar.

• **Ilmiy-amaliy** (emperik) – ilmiy tajriba va haqiqatdan amalga oshirilgan tajriba-sinovlar asosida qurilgan maqola.

• **Tahliliy** – oxirgi yillar davomida ma'lum sohadagi ilmiy yutuqlar tahliliga bag'ishlangan maqolalar.

Muallif yuqoridagi turlardan biriga mansub bo'lgan yo'nalishda maqola tayyorlashga kirishar ekan, uning mazmuniy mohiyatini o'zi tayyorlamoqchi bo'lgan maqolaga mosligini tahlil qiladi. Albatta, mazkur holatda mavjud manbalar qayta ishlanadi va tartibga solinadi.

Faqatgina nashr etilgan ishlar maqola hisoblanar ekan, uni bironta nashriyotga taqdim etishdan avval mazkur nashriyotning maqolalarga qo'yilgan talabi bilan yaqindan tanishish darkor. Umuman olganda, ko'plab nashriyotlar tomonidan maqolalarning quyidagi bo'limlardan tashkil topishi talab etiladi:

- **Kirish** - tahlil etilishi ko'zda tutilayotgan muammo yoritiladi;
- **Usullar** - mazkur muammo qanday usulda tadqiq etilgani ochib beriladi;
- **Natijalar** – tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan yangiliklar;
- **Muhokama** – natijalarning tahlili;
- Adabiyotlar ro'yxati.

Shuni ta'kidlash joizki, maqola uchun to'g'ri nom tanlash uning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, aynan *maqola nomi* soha mutaxassislarining e'tiborini maqolaga tortishi yoki uni ahamiyatsiz qolishiga

turtki bo‘lishi mumkin. Maqola nomi 3 so‘zdan boshlab 15 tagacha so‘zdan tashkil topishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, u maqola mazmunini to‘liq o‘zida aks ettirishi kerak. Maqolaga nom tanlashda quyidagi kamchiliklar uchrab turadi:

1. Maqola nomi o‘ta umumiy lashtirilgan, hattoki matnda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra kattaroq doirani qamrab oladi. Holbuki, nom iloji boricha aniqroq bo‘lishi lozim. Masalan: “Menejment”, “Pedagog faoliyati” – talabga javob bermaydigan nomlarga misol bo‘la oladi. Ular “Ta’lim tizimida menejment – samarali boshqaruvga yangicha yondashuv” va “Pedagogning ilmiy faoliyatini tashkillashtirishning nazariy va amaliy asoslari” ko‘rinishida bo‘lishi maqsadga muvofiq sanaladi.

2. Maqola nomi mantda tahlil etilayotgan masala mohiyatini aks ettirmaydi va o‘quvchini chalkashtiradi.

3. O‘ta dabdabali nom. Bunday nomlar ko‘proq reklama va yangiliklar matniga munosib bo‘ladi, lekin ilmiy matnga ular mos kelmaydi. Masalan: “Atrof-muhitning ifloslanishi – biz bu uchun qanday javobgarmiz” o‘rniga “Antropogen ta’sir orqali ekologiyaga yetkazilgan zararning to‘lovini hisoblash metodikasi” shaklidagi nomdan foydalanish o‘rinli sanaladi.

**Maqola annotatsiyasida** ilmiy muammo, maqola maqsadi va muallifning asosiy xulosalari qisqa tarzda yoritilib, maqolaning ilmiy yangiligi nimada ekanligi izohlanadi. Annotatsiya hajmi 500 belgidan, ya’ni 4-5 ta gapdan oshmasligi tavsiya qilinadi. Maqolaning mazkur qismida sitatalar, hammaga ma’lum dalillar, tafsilotlar keltirilmasligi kerak. U tushunarli tilda, qisqa jumalardan foydalangan holda, shaxssiz tarzda (ko‘rib chiqilgan, ochib berilgan, o‘lchangan, tavsiflangan va h.k.) bayon etilishi kerak.

**Kalit so‘zlar** – maqolaning turli axtaruv tizimlarida topish imkonini beruvchi asosiy omil. Ular asosiy holat, atamalar, natijalarni aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, kalit so‘zlar maqola mazmunini ham ifoda etishda alohida ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda bir maqola uchun 3-10 kalit so‘zlarni tanlash kifoya.

Maqolaning **Kirish** qismida muammo tavsifi, mavzuga oid adabiyotlar tahlili, ilmiy muammoga oid kuzatishlar, e’tiborsiz qolgan jihatlari, hali to‘liq ochilmagan yoki o‘rganilmagan qirralai (turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondashuv, tadqiqotni davom ettirishga bo‘lgan ehtiyoj) o‘z ifodasini topadi. Shuningdek, mazkur qismda maqola maqsadi va vazifalari alohida e’tibor bilan bayon qilinishi lozim.

Tajriba-sinov natijalarini yoritishga qaratilgan maqolalarda muallif tajriba o‘tkazish **usulini** tavsiflashi, foydalangan usulning asoslanganligi, olingan natijalarning aniqligi va qanday bo‘lsa shundayligicha bayon etilganini dalillashi shart. Agar bunday faoliyat amalga oshirilmasa, taqdim etilgan natijalarning ishonchliligi shubha ostida qoladi. Bunday maqolani o‘qish vaqtni behudaga sarflash bilan teng bo‘lib qoladi.

Maqola ustida ishlashning muhim qismi - bu ish **natijalarini taqdim etish** va ularni nazariy jihatdan izohlash hisoblanadi. Natijalar muhim muammolarni hal qilish imkonini berishi va yangi ilmiy yo‘nalishning rivoji uchun ahamiyatligi, “struktura-xossalar” bog‘liqligini aniqlash muhim. Albatta, olingan natijalarning statistik qayta ishlangan bo‘lishi, qonuniyatlar va mexanizmlar aniqlanishi, olingan

natijalarning strukturaviy-funksional tahlili amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi<sup>4</sup>. Natijalarni o'ziga xos usulda, ko'rgazmali shaklda – jadval, grafik va diagrammalardan foydalangan holda o'quvchi e'tiboriga havola qilish zarur. Lekin matematik hisob-kitoblarda me'yordan chetga chiqmagan holda foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki formulalarning ko'pligi maqola mohiyatini tushunishni sekinlashtiradi.

**Muhokama** qismida yana bir bor maqsad va vazifalar yodga olinib, yangilari (agar mavjud bo'lsa) sanab o'tiladi. Natijalar umumlashtirilib, natijalarga izoh beriladi. Shuningdek, tadqiqot olib borishdagi cheklovlar ham ko'rsatib o'tiladi (statistik ma'lumotlar ochiq foydalanish uchun mavjud emasligi, adabiyotlar kamligi va sh.k.) Maqolaning aynan shu qismida amaliyotda qo'llash uchun tavsiyalar va keyingi tadqiqotlar uchun yo'nalishlar keltiriladi. Umuman olganda, maqolaning muhokama qismi uning asosiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ham mazkur bo'lim ustida ishlashda alohida e'tibor bilan yondashish maqsadoga muvofiq.

**Xulosada** muallifning asosiy yutuqlari qayd etib o'tiladi. Xulosa obyektiv bo'lishi, hissiy yondashuvdan xoli bo'lishi kerak. Xulosada muallif olingan natijalarni o'z faoliyatiga asoslangan holda tahlil qilishi hamda olib borilgan ishning ahamiyatini bayon etishi mumkin.

Ilmiy maqolada boshqa uslubda yozilgan matnlardan farqlab turuvchi asosiy ko'rsatkichi bu uning bayon qilinish uslubidir. Ilmiy maqola mantiqiy butunlikka ega, grammatik va mazmunan jihatdan to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi kerak. Matn tahririy jihatdan ravon, xatosiz va tegishli me'yoriy-texnik talablar asosida rasmiylashtirilishi zarur. Maqola mazmun-mohiyati tadqiqotning maqsadi va vazifasidan kelib chiqqan holda o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda, tizimli ravishda ochib beriladi. Shuningdek, unda matn bir butunligini ta'minlovchi "boshqa tarafdin", "shunday qilib", "albatta", "aslida" kabi Kirish so'zlardan unumli foydalanish maqola qiymatini yanada oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ilmiy maqola yozish – murakkab jarayon hisoblanib, u psixofiziologik, shaxsiy, lisoniy xarakterga ega bir qator omillar bilan ta'minlanuvchi, ma'lumotni qabul qilishdan talqin qilinishgacha bo'lgan yo'ldan iborat. Ta'kidlash joizki, aynan shu omil matniy kompetentlikning eng asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Mazkur kompetentlikni puxta o'zlashtirgan ta'lim menejeri nafaqat davlat talablariga muvofiq mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariidan xabardor bo'ladi, balki ta'lim sohasidagi jahon yutuqlari va tendensiyalaridan kelib chiqqan holda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor istiqbolli yo'nalishlarida o'z fikr-mulohazasi va tajribasini keng ommaga bayon eta oladi. Bu esa o'z navbatida oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash sohasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

---

<sup>4</sup> Doktorlik dissertatsiyasi mavzusini ro'yxatdan o'tkazish va O'zbekiston Respublikasi OAK Axborotnomasida e'lon qilish tartibi// Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda 365-son qaroriga ilovalar. – 15-b. [http://www.fdu.uz/dissertatsiyaga\\_talablar/Tartib.pdf](http://www.fdu.uz/dissertatsiyaga_talablar/Tartib.pdf)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Doktorlik dissertatsiyasi mavzusini ro'yxatdan o'tkazish va O'zbekiston Respublikasi OAK Axborotnomasida e'lon qilish tartibi// Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 dekabrda 365-son qaroriga ilovalar. – 15-b. [http://www.fdu.uz/dissertatsiyaga\\_talablar/Tartib.pdf](http://www.fdu.uz/dissertatsiyaga_talablar/Tartib.pdf)
2. Higher Education in the Twenty-First Century: Vision and Action// World Conference On Higher Education – UNESCO, 1998. – 27-b.
3. Болотнова Н.С. Текстовая компетенция и пути ее формирования //Материалы науч.-практич. конференции – Томск, 2001. – С.66-76.
4. Вишнякова С.М. *Профессиональное образование Словарь. Ключевые понятия, термины, актуальная лексика.* — М. НМЦ СПО, 1999. — 538 с.

## КОРПОРАТИВ ТАРМОҚДА ФАН ВА ТАЪЛИМГА ОИД МАЪЛУМОТЛАРНИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ИЗЛАШ МОДЕЛИ ВА ВОСИТАСИ

**Мўминов Б.Б., Рахматуллаев М.А.** (*Тошкент ахборот  
технологиялари университети*)

*Мақолада фан ва таълимга оид маълумотларни интеллектуал излаш учун математик моделлар, норавшан билимлар базаси, сематик ядро модели ишлаб чиқиш асосида FSV технологиясининг архитектураси келтирилган.*  
**Калит сўзлар:** маълумот излаш, излаш элементлари, сўров, мантиқий излаш, векторли алгебра, стохастик назария, норавшан наўария, қоидалар, билимлар базаси.

## MODELS AND MEANS OF INTELLECTUAL SEARCH FOR SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL INFORMATION IN CORPORATE NETWORK

**Muminov B.B., Rakhmatullaev M.A.** (*Tashkent University of Information  
Technologies*)

*In article giving the architecture of FSV technology is based on foundations, search model, fuzzy knowledge base and semantic core for the intellectual searching data of scientific and educational information in corporate network.*  
**Keywords:** Search information, searching elements, query, logical searching, vector algebra, stochastic theory, fuzzy theory, rules and knowledge base.

Бугунги кунда корпоратив тармоқларда фан ва таълимга оид ахборот муҳитларининг асосий манбалари электрон шаклда бўлиб, уларни манбалар деб ажратиш оламиз. Бундай тизимларда маълумотларни интеллектуал излаш модуллари самарали ишлаши учун бир нечта базавий босқичларнинг